

**ISLOM MOLIYASI XIZMATLARIDAN KELIB CHIQUVCHI NIZOLARNI  
HAL ETISH USULLARI. XALQARO TAJRIBA.**

*Mamatmurodov Farrux Farxod o‘g‘li*  
*Xususiy huquq fakulteti tyutori*  
*Toshkent davlat yuridik universiteti*  
*Email: [mamatmurodovfirdavs@gmail.com](mailto:mamatmurodovfirdavs@gmail.com)*  
*Tel: +998933005005*

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda islam moliyasi xizmatlarini amalaga oshirishda shartoma tomonlari o‘rtasida kelib chiquvchi mojarolarni hal shakllari sifatida sudlar va arbitrajlar muhokama qilinadi. Islom moliyasi xizmatlari va islam banklari faoliyat ko‘lami kengaygani sayin nafaqat musulmon davlatlarida, balki aholisining asosiy qismi musulmon bo‘lmagan davlatlarda ham bu kabi munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni hal etishda arbitraj sudlari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada arbitraj sudlarining islam moliyasi xizmatlaridan kelib chiqadigan munosatlarni hal etishda arbitraj sudlarining o‘rnini haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Arbitraj sudlari, mahalliy sudlar, sukuk, mushoraka, muzoraba, da;vogar, javobgar, instansiya sudlari, appelyatsiya sudlari.

*Маматмуродов Фаррух Фарход ўғли*  
*Тьютор факультета Частного права*  
*Ташкентского государственного*  
*юридического университета*  
*Email: [mamatmurodovfirdavs@gmail.com](mailto:mamatmurodovfirdavs@gmail.com)*  
*Тел: +998933005005*

**МЕТОДЫ РАЗРЕШЕНИЯ СПОРОВ, ВОЗНИКАЮЩИХ В СВЯЗИ С  
УСЛУГАМИ ИСЛАМСКОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ.  
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ.**

**Аннотация:** В данной диссертации суды и арбитражи рассматриваются как формы разрешения конфликтов между договаривающимися сторонами при реализации услуг исламского финансирования. По мере расширения сферы деятельности исламских финансовых услуг и исламских банков все большее значение в разрешении споров, возникающих из таких отношений, приобретают арбитражные суды не только в мусульманских странах, но и в странах, где большинство населения не является мусульманином. В данной статье

рассматривается роль арбитражных судов в разрешении споров, возникающих в сфере исламских финансовых услуг.

**Ключевые слова:** Арбитражные суды, местные суды, сукук, муширак, мубарака, истец, ответчик, суды инстанций, апелляционные суды.

**Mamatmurodov Farrux Farxod o‘g‘li**

*Tutor of Private law*

*Tashkent state university of law*

Email: [mamatmurodovfirdavs@gmail.com](mailto:mamatmurodovfirdavs@gmail.com)

Tel: +998933005005

## **METHODS OF RESOLVING DISPUTES ARISING FROM ISLAMIC FINANCE SERVICES. INTERNATIONAL EXPERIENCE.**

**Abstract:** In this thesis, courts and arbitrations are discussed as forms of conflict resolution between contracting parties in the implementation of Islamic finance services. As the scope of activities of Islamic financial services and Islamic banks expands, arbitration courts are becoming more and more important in resolving disputes arising from such relations not only in Muslim countries, but also in countries where the majority of the population is not Muslim. This article discusses the role of arbitration courts in resolving disputes arising from Islamic finance services.

**Key words:** Arbitration courts, local courts, sukuk, musharak, mubaraka, plaintiff, defendant, instance courts, appellate courts.

### **Kirish.**

Islom moliyasi so‘nggi bir necha yil ichida global mashtabda keng qamrovli mashhurlik yig‘ib bormoqda. Bunga asosiy sabab, albatta islom moliyasining moliyaviy inqirozga olib kelgani aytildigan an’anaviy moliya-bank tizimi va uning amaliyotlariga nisbatan ishonchli va axloqiy muqobil moliyaviy tizimni taklif qilishidir.

“ICD/Thomson Reuters” global yangiliklar agentligining 2017-yildagi Islom moliyasining rivojlanish hisobotiga ko‘ra, 2016-yilda islom moliyasi aktivlarining umumiyligi 2.2 trln AQSH dollariga yetgan bo‘lib, 2021-yilda bu ko‘rsatkich tahminan 4.4 trln AQSH dollarini tashkil qilgan.<sup>1</sup> Axloqiy moliyaning bir qismini tashkil etuvchi e’tiqodga asoslangan Islomiy moliyasi islom qonunlariga asoslangan yoki mos keladigan innovatsion mahsulotlar orqali moliyaviy vositachilikni taklif qilib, so‘nggi bir necha yil ichida kuzatilgan misli ko‘rilmagan o‘sishi mahsulot

<sup>1</sup> <https://www.lseg.com/en/insights/data-analytics/navigating-uncertainty-global-islamic-finance-assets-expected-to-exceed-67-trillion-by-2027#:~:text=The%20global%20Islamic%20finance%20industry,Islamic%20Finance%20Development%20Report%202023.>

taklifini takomillashishiga olib keldi. Islom moliya sanoati tomonidan taqdim etilayotgan innovatsion vositalar majmuasi uning globallashuvi va musulmon olamidan tashqarida kengayishiga katta hissa qo'shdi.

Islom moliyasining nafaqat aholising asosiy qismi musulmon bo'lgan davlatlarda, balki musulmon bo'lman davlatlarda ham rivojlanishi va islom moliyasi doirasida tuzilgan sharnoma tomonlarining faoliyati bir necha davlatlarga bog'langanligi shariatga muvofiq bitimlar bilan bog'liq bo'lgan nizolar sonining ko'payishiga olib keldi. Bu kabi nizolarni samarali hal etish bo'yicha Islom huquqida moliya va mulk huquqi bilan bog'liq bo'lgan nizolarni hakamlik sudlari (Arbitraj) orqali amalga oshirish mumkinligi katta yangilik bo'lmay qoldi.

Hakamlik (Arbitraj) sudlari - bu tomonlarning kelishuv asosida nizoni taraflar tomonidan yoki taraflar uchun tanlangan davlat faoliyatiga bog'liq bo'lman qaror qabul qiluvchiga topshirish jarayoni bo'lib, nizoni neytral, sud tartibiga muvofiq hal qilishda majburiy qaror qabul qilish uchun har bir tarafga taqdim etish imkoniyatini beradigan sudlardir.

Asosan nizolarni samarali hal etishga qaratilgan arbitraj sudining qadriyatları islom huquqida mustahkamlab qo'yilgan. Nizolarni hal qilishning islom mexanizmiga arbitrajning kiritilishi nizolarni hal qilishning muqobil vositasi sifatida arbitrajning afzalliklaridan dalolat beradi. Maqolada islomiy moliya operatsiyalaridan kelib chiqadigan nizolarni hal qilishda arbitraj sudlarining o'rni muhim ahamiyat kasb etadi degan fikrlarni isbotlovchi ba'zi asoslar ko'rib chiqiladi.

Arbitraj sudlari haqida gapirganimizda arbitraj sudlarining tomonlarning erkinligi tamoyili arbitraj sudlariga ustunlik beruvchi asoslardan biri hisoblanadi. Tomonlarning erkinligi tamoyili orqali, tomonlarga nizolarni hal etishning muqobil shakllarini tanlash huquqi beriladi. Arbitraj sudlarida tomonlarning erkinligi tamoyili arbitraj kelishuvi orqali namoyon bo'lib, har qanday arbitraj sudlarining muhim fundamenti hisoblanadi. Arbitraj kelishuvi orqali tomonlarga shartnomadan kelib chiquvchi nizolarni hal etishda qaysi huquq orqali ko'rib chiqish tanlovi beriladi.

Bundan tashqari arbitraj sudlari tomonlarga o'zlarining sudyalarini tanlash va islom moliyasi xizmatlaridan kelib chiquvchi nizolarni ko'rib chiqishda mutaxassis bo'lish kabi imkoniyatni beradi. Bu kabi tajriba arbitraj sudlarida samarali va adolatli natijaga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqola islom moliya sektoridagi nizolarni hal qilishda bugungi kundagi anglo-sakson huquq tizimidagi ayrim tajriba va ma'lumotlarni taqdim etadi. Shu bilan birga mahalliy sudlar bu kabi munosabatlardan kelib chiqadigan munosabatlarni yetarli darajada hal eta olmasliklari yuzasidan ham asosli xulosalarni muhokamaga qo'yadi. Shuningdek, ushbu maqolada nizolarni hal qilishning muqobil shakli sifatida arbitrajning shariatga mos yechimlarini taqdim etishda qanday yordam berishi

mumkinligi, nima sababdan nizolarni sud orqali hal qilishning an'anaviy usullari muvaffaqiyatsizlikka uchraganligi haqida so'z boradi.

Agar biz xalqaro tajribaga e'tibor qaratsak, mahalliy va xalqaro miqyosdagi yurisdiksiya sudlarida an'anaviy banklar va islom moliyasi xizmatlaridan kelib chiqadigan nizolarni hal qilishda tajriba yetarli darajada emasligining guvohi bo'lamiz. Misol uchun Malayziya fuqarolik sudlarini oladigan bo'lsak, ushbu sudlar Shariat sudlaridan alohida faoliyat yuritadi, shuningdek, shariat normalarini qo'llashda ham xatto sudyalarning bilimlari yetarli darajada emas.

Islom moliyasi muassasalari (IFSI) ushbu xizmatlar ko'rsatilayotgan mamlakatlar milliy qonunchiligining subyekti hisoblanadi. Shu bilan birga islom moliyasi muassasalarining shariatga muvofiqligining turli xil huquqiy tizimlar ostida buzilmasligini kafolatlash juda muhim ahamiyat kasb etadi. Asosiy huquq yoki tartibga soluvchi huquq shunday huquq yoki huquqiy tizimni nazarda tutadiki, u tomonlar o'rtasida kelib chiqadigan nizolarni hal etish va moliyaviy bitimlarni izohlashda muayyan huquqqa ega bo'ladi. Islom moliyasi xizmatlarida asosiy huquq islom moliyasi operatsiyalarining shariatga muvofiqligini kafolatlashi shart bo'ladi. Nazariy jihatdan islom huquqi islom moliyasi xizmatlarining shariatga muvofiqligini kafolatlash maqsadiga xizmat qiladi. Islom moliyasi xizmatlarida islom tamoyillariga asoslanmagan qonunchilikni qo'llash shariatga rioya qilish tushunchasini buzishi mumkin.

Islom moliyasi uchun asosiy huquq sifatida islom huquqining qo'llanilishi amaliyotda bir muncha mushkul vazifadir. Bunga sabab sifatida 3 ta omilni misol qilib keltirishimiz mumkin:

1. Islom huquqiga asoslanmaydigan yurisdiksiyalarda islom moliyasi xizmatlarining faoliyat yuritishi;
2. Asosiy huquq bo'yicha tomonlarning qarama-qarshi pozitsiyalari;
3. Shariat normalarining asosiy huquq bo'yicha nizolarni hal etish yuzasidan tan olinuvchi manbaa sifatidan ko'rishi yoki ko'rilmaligi.

Islom moliyasida bu kabi holatlar ikki huquq tizimining o'zari ziddiyati deb talqin qilinadi. Bu kabi holatlarda islom huquqi, milliy huquq yoki aralash huquqiy tizim qo'llaniladimi yoki yo'qmi, shuningdek, amaldagi qonunchilik holati bo'yicha ham bir qancha savollarni yuzaga chiqaradi. Shu bilan birga ikki huquqiy tizim o'rtasida yuzaga keladigan bu kabi muammolar vujudga kelganda va islomiy moliyaviy operatsiyalar bo'yicha nizolar paydo bo'lganda islom huquqiga murojaat qilinishining mumkunligi imkonlimi degan fikrlarni ham o'rtaqa qo'yadi.

Bundan tashqari bu kabi holatlar islom huquqi islom moliyasi muassasalari faoliyat yuritayotgan mamlakatlarning huquqiy tizimida nizolarni hal etish uchun tanlov huquqi bo'la oladimi yoki yo'qmi degan qarashlarni o'rtaqa chiqaradi. Bu savol islom mamlakatlari va nomusulmon davlatlar uchun bir xil darajada muhimdir.

Chunki, islom huquqining islom olamida suveren qonun sifatidagi mavqeい to‘liq tizimlashtirilgan yaxlit bir ko‘rinishni hali kasb etmagan.

Islom moliyasi xizmatlari bilan bog‘liq nizolar milliy yoki mahalliy sudlardan tashqarida yoki milliy yoki mahalliy sudlarda ham hal qilinishi mumkin. Sudlardan tashqarida nizolarni hal etish bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri arbitraj sudlarida ko‘rib chiqilsa, ikkinchisi mahalliy sudlarda ko‘rib chiqiladi. Yevropada islom moliyasi rivojlangan davlatlardan biri bu Buyuk Britaniya bo‘lganligi sababli ushbu davlatda islom moliyasi xizmatlaridan kelib chiquvchi nizolarni hal etish tajribasiga alohida to‘xtalib o‘tishimiz zarur.

Shu bilan birga Buyuk Britaniyani tanlashimizga yana ikkita fakt sabab bo‘ladi:

- ingliz huquqi xalqaro islomiy moliyaviy operatsiyalar uchun eng ko‘p tanlanadigan huquq;

- uning boshqa huquqiy tizimlar va mamlakatlarga keng ko‘lamli ta’sir etishi.

Arbitraj sudlarida asosiy huquq sifatida islom huquqining tanlanishi ingliz huquqi bo‘yicha qonuniy hisoblanadi. Bunga birinchi sabab sifatida nizolarni muqobil hal etish sifatida arbitraj sudlarining tabiatini va xususiyati islom huquqini tanlashni osonlashtiradi. Bunga asosan arbitraj sudlarining 4 ta asosiy xususiyatlari asos bo‘ladi:

- mahalliy sudlarning muqobili hisoblanadi;
- nizolarni hal etish uchun alohida yo‘nalish bo‘lib, shartnoma tomonlari o‘rtasida nizolarning hal etishda mustaqil tanlanadi;
- arbitraj sudlari tomonlarning huquq va majburiyatlari yuzasidan so‘ngi va majburiy qarorlar chiqaradi.

Ikkinchidan, shuni ta’kidlash joizki, Buyuk Britaniya qonunchiligidagi 1996-yilgi “**Angliya arbitraj sudlari to‘g‘riida**”gi Qonun mavjud bo‘lib, bu qonunga ko‘ra arbitraj sudlari islom huquqini amaldagi qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan muqobil huquq sifatida ko‘radi. Ushbu qonunning 46-moddasi (Nizoning mohiyatiga nisbatan qo‘llaniladigan qoidalar) “a” bandida “*nizoning mohiyatiga ko‘ra tanlanadigan bo‘lsa, shartnoma taraflari tomonidan tanlanadigan qonunga muvofiq yoki*” “b” bandida “*agar tomonlar kelishgan bo‘lsa, tomonlar o‘rtasidagi yoki sud tomonidan belgilangan boshqa mulohazalar bo‘yicha*” degan normalar mavjud bo‘lib, bunga ko‘ra arbitraj sudlari ushbu normalarni asos qilib, agar tomonlar o‘rtasida kelishilgan bo‘lsa, islom huquqi normalari bo‘yicha nizolarni ko‘rib chiqishi mumkin.

Ushbu holatga asos va amaliy tajriba sifatida Sayyid Muhammad Musavi va “R.E.International” MCHJ o‘rtasida kelib chiqqan nizoni keltirib o‘tishimiz mumkin. Ushbu sud ishi 1987-yil va 2002-yillar oralig‘ida bo‘lib o‘tgan Londondagi Wembley hududi South Westdagi Uebmli stadioniga qo‘shilgan 4.1 akr yerni muzoraba asosida sotib olish, o‘zlashtirish va egalik qilish bo‘yicha da‘vogar va javobgarlarning o‘rtasida tuzilgan bir qancha shartnomalardan kelib chiqqan nizolar bo‘yicha bo‘lgan. Tomonlar o‘rtasida shartnoma tuzilgach, keyinchalik ularning huquqlari bo‘yicha

kelishmovchiliklar yuzaga kelgan. Tomonlar nizoni islom huquqi asosida hal qilish maqsadida 2003-yilda arbitraj kelishuvini tuzdilar. Da'vogar va boshqa ayblanuvchilar shia jamiyatining a'zolari bo'lib, ushbu yerga birgalikda sarmoya kiritgan. Ularning kelishuvi shia shariat qonunlari bilan tartibga solinishi kerak edi. Sud islom huquqini qo'llashni rad etdi, chunki bu umumiyligini qonun talab qiladigan mamlakat qonuni emas edi. 1990-yilgi "Shartnoma to'g'risida"gi Qonunning kuchga kirishi bilan, tomonlar faqat mamlakat qonunini tanlashlari mumkin edi. Shu sababli ham sud ushbu qonunga asoslanib, davogar va javobgar tanlagan islom huquqini qo'llashni rad etgan. Ammo, 1996-yil "Arbitraj to'g'risida"gi Qonun qabul qilinganidan so'ng, uning 46-moddasi "b" bandiga asosan tomonlarga davlat qonunidan boshqa qonunni tanlash imkonini beradi. 2004-yilda arbitraj sudi da'vogar foydasiga qaror chiqardi. Sudlanuvchilar bu qarorga e'tiroz bildirdi. Ammo, sud qarorni ijro etilishi majburiy deb topdi.

Ushbu sud ishida kelib chiqqan nizo 1996-yilgi "Angliya arbitraj sudlari to'g'risida"gi Qonunga ko'ra islom huquqi arbitraj sudlari tomonidan ishni ko'rib chiqishdagi asosiy qonun bo'la oladimi yoki yo'qmi degan savolni yuzaga chiqardi. Shuningdek, sud jarayonida islom huquqi nizolarni hal etishda murojaat qilinishi mumkinmi yoki yo'qmi degan savol diqqat bilan mulohaza qilishni talab etdi.

Buyuk Britaniya 1973-yil Yevropa iqtisodiy hamjamiyatiga qo'shilganidan so'ng birlashmaning a'zosi sifatida ingliz sudlari Yevropa Ittifoqi qonunlarini ham qo'llashi shart bo'ldi. Ularning qarorlari Yevropa sudlarining qarorlariga ham bog'liq bo'ldi. 1990-yilda Angliyada "Shartnomalar to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Bu qonunga ko'ra endi shartnomaviy majburiyatlarga nisbatan qo'llaniladigan 1980-yildagi Rim konvensiyasi qabul qilindi. Boshqa tomonidan, Rim konvensiyasi shartnoma majburiyatlariga nisbatan qo'llaniladigan huquq to'g'risidagi Kengash Nizomi (EC) № 593/2008 (Rim I Reglamenti) bilan almashtirildi.

Qonunning 3-modasiga ko'ra shartnomadan kelib chiquvchi nizolarni ko'rib chiqish tomonlar o'rtasidagi o'zaro tanlanga huquqqa ko'ra ko'rib chiqiladi. Agar tomonlar o'rtasida nizoni ko'rib chiquvchi huquq tanlanmagan bo'lsa, shartnoma mazmuniga ko'ra eng bog'liq huquq tanlanadi. Shu bilan birga, u tomonlarning tanlovi, ayniqsa, xorijiy davlat shartnoma bilan mustahkam aloqaga ega bo'lsa, xorijiy huquqning majburiy qoidalarini qo'llashga zarar keltirmasligini ta'minlaydi.

Ingliz huquqi qarashlariga ko'ra islom huquqi chet el huquqi hisoblanadi. Sud islom huquqini qo'llashdan oldin u ingliz huquqidan farqli jihatlari mavjudligi borligi isbotlanishi shart bo'lgan fakt sifatida qaraydi. Agar bu bajarilmasa, ingliz huquqining umumiyligini prinsipi shundan iboratki, ingliz sudi ushbu xorijiy qonunning mazmuni ingliz huquqi bilan bir xil deb xulosa qiladi va shuning uchun ingliz huquqini qo'llaydi. Sudlarda islom huquqi o'rganilmaganligi sababli, islom huquqining mazmuni ushbu sohada mutaxassis bo'lgan inson tomonidan isbotlanishi kerak bo'ladi. Oila huquqida ingliz sudlari islom huquqini qo'llaydi. Bu fikrni tasdiqlovchi bir qancha holatlar

mavjud. Ammo, shartnoma huquqida bu kabi holatlarni hal etish oila huquqidan ko‘ra ancha murakkabroqdir. Ba’zi holatlar borki, unda islom moliyasi va shartnomalariga nisbatan islom huquqini qo‘llashga ingliz sudlarining munosbatini baholashga to‘g‘ri keladi.

Ushbu holatda quyidagi sud ishini ko‘rib chiqishimiz maqsadga muvofiqdir. Abdel Hadi Abdulloh Al Qahtani & Sons Beverage Industry Company va Endryu Antliff o‘rtasida nizo kelib chiqqan bo‘lib, bunga ko‘ra sudga da’vogar bilan ishslash jarayonida javobgarning xatti-harakatlaridan kelib chiqadigan bir qator nizolarni aniqlash uchun sud chaqirildi. Xususan, sud tomonlar o‘rtasida shartnoma qachon kuchga kirgani, ishga qabul qilish bilan bog‘liq poraxo‘rlik, o‘g‘irlik va ishonchni suiiste‘mol qilish masalalarini aniqlashi kerak edi. Ayblanuvchi Buyuk Britaniya fuqarosi bo‘lib, Saudiya Arabistonida da’vogar uchun ishlagan. Sud ishni ko‘rib chiqish jarayonida sud islom huquqini Saudiya arabistonida ham qo‘llanilganligi sababli islom huquqining qo‘llanilishiga rozi bo‘ldi. Doktor Mujohid M Al-Savvaf va Ian Edge sud muhokamasidagi masalalar bo‘yicha shariat pozitsiyasi haqida fikr bildirish uchun ekspert sifatida chaqirildi. Sud uchun shariatni Saudiya qonunchiligidan ajratish qiyin bo‘ldi. Boshqa musulmon mamlakatlarida mavjud bo‘lgani kabi Saudiya Arabistonda tijorat huquqi uchun fuqarolik protsessual qonunlari yoki alohida kodeks yo‘q edi. Biroq, sud Saudiya Arabistonida qo‘llanilgan Majallahda bir necha jildlardan iborat bo‘lgan shariat qoidalarini kodifikatsiya qilish shakli mavjudligini aniqladi. Biroq sud qarori Majallohga emas, balki ekspertlar tomonidan bir qancha islomiy matnlardan olingan shariat qoidalariga asoslagan.

Abdel Hadi Abdallah Al Qahtani & Sons Beverage Industry Company ishidan tashqari, undan oldin kelgan boshqa ishlar, hatto shartnoma taraflari tomonidan aniq kelishilgan bo‘lsa ham, ingliz sudlari islom huquqini qo‘llashni rad etganlar.

### **Xulosa.**

Zamonaviy moliyaga mos keladigan islom moliyasini ishlab chiqishda islom huquqining an‘anaviy tamoyillarini muvofiqlashtirishda bir muncha qarama-qarshiliklar mavjud. Ko‘plab islom banklari va moliyaviy muassasalari tarkibida islom moliyasi mahsulotlari va xizmatlarining shariatga muvofirligini nazorat qilishga mas’ul bo‘lgan Shariat maslahat kengashi mavjud bo‘ladi. Ammo, haligacha shariat kengashi sertifikatiga muvofiq shartnomalar haqiqatan ham bajarilishi yoki bajarilishini ta’minlash muammo bo‘lib qolmoqda.

Huquqni tanlashda odatda islom moliyasi shartnomalari islom huquqiga bo‘ysunishi kutiladi. Ammo, bunday shartnomalarda tomonlar turli mamlakatlarda bo‘lsa, yoki nizolar islomiy bo‘lmagan mahalliy sudlarda ko‘rilganda, o‘zaro ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Bu esa boshqa huquqlarni islom huquqi bilan asosiy tan olinadigan huquq sifatida qaysi biri tanlanishi yuzasidan qarama-qarshiliklarni

keltirib chiqaradi. Sababi, shartnoma isлом huquqini qo'llamaydigan davlatlar bilan aloqa bog'lagan bo'ladi.

An'anaviy transchegaraviy moliyaviy operatsiya uchun asosiy huquqni tanlash va nizolarni hal etish sud ishining muhim qismini tashkil etadi. Tomonlar ma'lum bir yurisdiktsiyani tanlashdan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlarni ko'rib chiqishlari kerak, masalan, tomonlar sudga da'vo qo'zg'atishni tanlagan yurisdiktsiyada bunday tartibga soluvchi qonunlarning qo'llanilishi masalasi, nizolar va xorijiy qonunlarning ijro etilishi, shunindek, mahalliy yurisdiktsiyadagi qarorlar.

Tomonlar islomiy moliyaviy asosdan foydalanganda, moliyaviy hujjatda boshqa bir boshqaruv qonuni yoki prinsipi qatlami eslatib o'tiladi, bu esa mavjud muammolarni murakkablashtiradi. Tomonlar moliyaviy hujjatlarga nisbatan huquqiy oqibatlar haqida o'yamasdan, asosiy huquq shariat tamoyillariga bo'ysunishini ko'rsatuvchi bandni kiritishlari juda oson ko'rindi. Islomiy moliya hujjatlarida isлом tamoyillarini qo'llab-quvvatlaydigan va amalga oshiradigan sud tizimi mavjud bo'lмаган huquqiy muhitda shariat tamoyillariga havola qilingan asosiy huquqning ta'minlanishi noo'rin ko'rindi va passiv ta'sir qiladi.

Huquqiy amaliyotchilar tomonidan isлом transchegaraviy moliyalashtirish hujjatlarida tobora ko'proq qabul qilinayotgan eng yaxshi amaliyot tomonlarning kelishuv shariatga muvofiq ekanligiga ishonchi komil ekanligi haqidagi bayonotni va tomonlar kelishuvning bajarilishiga e'tiroz bildirmaslikka rozi bo'lган bandni kiritishdir. Asosiy huquq bandi shariatga havolasiz faqat qonun tanlashni nazarda tutadi. Bundan tashqari, transchegaraviy islomiy moliyaviy operatsiyalarda ishtirok etuvchi tomonlar u taqdim etayotgan moslashuvchanlik va shariat va moliyaviy ekspertlarni hakam sifatida jalb qilish imkoniyatidan foydalanish uchun nizolarni hal qilish usuli sifatida tobora ko'proq arbitrajni tanlamoqda.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **I.Maqlolalar**

1.1 Sukuk: History and Development, Essia Ries Ahmed, Md. Aminul Islam, Fathyah Hashim.

1.2 A qualitative analysis on the determinants of legitimacy of sukuk. Essia Ries Ahmed, Md. Aminul Islam, Tariq Tawfeeq Yousif Alabdullah.

1.3 Sukuk Legitimacy A New Measurement Based on Content Analysis. Essia Ries Ahmed.

1.4 Sukuk Market: Innovations and Challenges. Muhammad Al-Bashir Al-Amine

1.5 Compare and Contrast Sukuk (Islamic Bonds) with Conventional Bonds, Are they Compatible? T. Afshar

1.6 Sukuk -History-and-Development. Essia Ries Ahmed, Md. Aminul Islam and Fathyah Hashim.

**II. Elektron manbaalar**

- 2.1 <https://aoofi.com/ss-17-investment-sukuk/?lang=en>
- 2.2 [https://www.researchgate.net/publication/263653189\\_Islamic\\_Sukuk\\_Pricing\\_Mechanism\\_and\\_Rating](https://www.researchgate.net/publication/263653189_Islamic_Sukuk_Pricing_Mechanism_and_Rating)
- 2.3 <https://www.investopedia.com/terms/b/bond.asp>
- 2.4 [https://www.linkedin.com/pulse/similarities-between-sukuk-bonds-conventional-altinvestng?trk=public\\_post](https://www.linkedin.com/pulse/similarities-between-sukuk-bonds-conventional-altinvestng?trk=public_post)
- 2.5 [https://islommoliyasi.uz/uz/1027/#\\_ftn3](https://islommoliyasi.uz/uz/1027/#_ftn3)  
<https://www.investopedia.com/terms/s/sukuk.asp>